

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI

**XOTIN-QIZLAR BILAN ISHLASH VA OILALARDA MA’NAVIY-AXLOQIY
QADRIYATLARNI MUSTAHKAMLASH BO‘YICHA MUTAXASSIS TO‘G‘RISIDAGI
NIZOMNI TASDIQLASH HAQIDA**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son **Farmoniga** muvofiq hamda tuman (shahar) xotin-qizlar qo‘mitalarining xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha mutaxassislari faoliyatini samarali tashkil etish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash va oila institutini mustahkamlash sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2018-yil 2-fevraldagi PF-5325-son **Farmoniga** muvofiq 2018-yil 1-apreldan fuqarolar yig‘inlarining diniy ma’rifat va ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi lavozimi o‘rniga tegishli shtat birliklarini tuman (shahar) xotin-qizlar qo‘mitalari tuzilmasiga o‘tkazgan hamda mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan moliyalashtirish tartibini saqlagan holda xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha mutaxassis (keyingi o‘rinlarda mutaxassis deb ataladi) lavozimini joriy etish belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar mutaxassisning asosiy vazifalari etib belgilansin:

xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning muammolarini o‘z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo‘lgan va og‘ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko‘rsatish;

xotin-qizlarning bandligini ta’minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish;

xotin-qizlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, huquqbuzarlikka moyilligi bo‘lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarning ijtimoiy rehabilitatsiyasi va moslashishi bo‘yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlik qilish;

oilalarning reproduktiv salomatligini yaxshilash va tibbiy madaniyatini oshirish;

oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, erta nikoh va ajrashishlarning oldini olish bo‘yicha samarali choralarni ko‘rish.

3. Xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha mutaxassis to‘g‘risida nizam **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin va 2018-yil 1-apreldan boshlab amalga kiritilsin.

4. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi va O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasining xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo‘yicha mutaxassis mehnatiga haq to‘lashning Yagona tarif setkasi bo‘yicha **razryadlarini** 7-razryad qilib belgilash to‘g‘risidagi taklifga rozilik berilsin.

5. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **2-ilovaga** muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirishlar kiritilsin.

6. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari — O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi raisi T.K. Narbayeva zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri A. ARIPOV

Toshkent sh.,
2018-yil 14-mart,
200-son

Xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassis to'g'risida

NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur Nizom tuman (shahar) xotin-qizlar qo'mitalarining xotin-qizlar bilan ishlash va oilalarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash bo'yicha mutaxassisining (keyingi o'rinlarda mutaxassis deb ataladi) asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari, majburiyatlarini, faoliyatini tashkil etish tartibini, shuningdek uning faoliyati samaradorligini baholash mezonlarini belgilaydi.

2. Mutaxassis o'z faoliyatini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, mazkur Nizomga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq amalga oshiradi.

3. Mutaxassis o'z vazifa va funksiyalarini davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, shu jumladan, tuman (shahar) hokimligi, xotin-qizlar qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazining tuman (shahar) bo'limlari, fuqarolik holati dalolatnomalarini yozish organlari (keyingi o'rinlarda FHDY organlari deb ataladi), fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari bilan faol hamkorlikda amalga oshiradi.

2-bob. Mutaxassisning asosiy vazifalari va funksiyalari

4. Quyidagilar mutaxassisning asosiy vazifalari hisoblanadi:

xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish;

xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish;

xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, huquqbuzarlikka moyilligi bo'lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashishi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlik qilish;

oilalarning reproduktiv salomatligini yaxshilash va tibbiy madaniyatini oshirish;

oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, erta nikoh va ajrashishlarning oldini olish bo'yicha samarali choralar ko'rish.

5. Mutaxassis o'ziga yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagi funksiyalarni amalga oshiradi:

a) xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, ularning muammolarini o'z vaqtida aniqlash, yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik va moddiy yordam ko'rsatish sohasida:

xotin-qizlarga ularning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda ko'maklashadi, shu jumladan, ularga qonun hujjatlari bilan belgilangan huquqlarini tushuntiradi, ularni ro'yobga chiqarish yuzasidan yo'l-yo'riqlar ko'rsatadi;

yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarning, shu jumladan, nogironligi bo'lgan xotin-qizlar va nogironligi bo'lgan shaxslarni parvarish qiluvchi ayollarning manzilli ro'yxatini yuritadi;

yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlar, oilalar va bolalarga ko'rsatilishi zarur bo'lgan ijtimoiy, tibbiy, huquqiy, psixologik va moddiy yordam turlarini

aniqlaydi, ularning ko'rsatilishini ta'minlash choralari ko'radi, shu jumladan ushbu toifadagi shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarish yuzasidan davlat organlari va muassasalariga murojaat qiladi;

yordamga muhtoj bo'lgan va og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan oilalardagi qizlarning ta'lim olishi, bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil etishi, zarur tibbiy va psixologik yordam olishi uchun tizimli chora-tadbirlar ko'radi;

xotin-qizlarga nisbatan jismoniy yoki ruhiy zo'rlik ishlatish ehtimoli mavjud oilalarda profilaktik tushuntirish ishlarini olib boradi, bunday holatlar aniqlanganda xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga ko'maklashadi;

chet elga ishlash yoki o'qish uchun ketgan va u yerdan qaytib kelgan xotin-qizlarga, shu jumladan odam savdosidan jabrlanganlarga ijtimoiy hayotga moslashishlari uchun har tomonlama ko'mak beradi;

b) xotin-qizlarning bandligini ta'minlash, mehnat sharoitlarini yaxshilash, ularni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish sohasida:

fuqarolar yig'ini kengashi hamda vakolatli davlat organlari bilan hamkorlikda xotin-qizlar bandligini ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar ishlab chiqadi hamda ularni hayotga tatbiq etilishini tashkil etadi;

xotin-qizlarni, ayniqsa, qishloq joylardagi yosh qizlarni oilaviy va xususiy tadbirkorlikka, hunarmandchilikka keng jalb etish choralari ko'radi, ularga davlat xizmatlaridan foydalanish, kredit va boshqa resurslarni jalb qilish masalalarida tushuntirishlar beradi;

xotin-qizlar, ayniqsa, ta'lim muassasalari bitiruvchilari, nogironligi bo'lgan shaxslar va kam ta'minlangan oilalardagi xotin-qizlarning bandligini ta'minlashga qaratilgan tashabbuslarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash choralari ko'radi, tadbirkorlik, shu jumladan hunarmandchilik va kasanachilik faoliyatini tashkil etishda xotin-qizlar o'rtasida o'zaro tajriba almashishni tashkil etadi;

xotin-qizlarga ularning qiziqishlariga mos keladigan kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim, qayta tayyorlash va malaka oshirish muassasalari haqida, shu jumladan ularga qabul qilish tartibi va sirtqi ta'lim olish shartlari haqida tushuntirishlar beradi;

xotin-qizlarning bandligini ta'minlashga qaratilgan tadbirlarni moliyalashtirish, shu jumladan ushbu maqsadda kredit resurslarini ajratishda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi kafilligini berish yuzasidan fuqarolar yig'iniga takliflar kiritadi;

tuman (shahar) hokimligi, xotin-qizlar qo'mitasi, bandlikka ko'maklashish markazlari, davlat xizmatlari markazlari va tijorat banklari filiallari bilan hamkorlikda tegishli hududda faoliyat ko'rsatayotgan tashkilotlar ishtirokida xotin-qizlar uchun mehnat yarmarkalari, tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etadi;

v) xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, huquqbuzarlikka moyilligi bo'lganlar bilan yakka tartibda ish olib borish, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan xotin-qizlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashishi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirishda davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlar va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan yaqin hamkorlik qilish sohasida:

huquqni muhofaza qiluvchi organlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari va boshqa tashkilotlar bilan birgalikda xotin-qizlar o'rtasida huquqbuzarliklar va jinoyatchilik profilaktikasini samarali tashkil etishga qaratilgan tadbirlarni tashkil etadi;

xotin-qizlarning huquqiy madaniyatini oshirishga qaratilgan huquqiy tarbiya va huquqiy targ'ibot ishlarini tashkil etish choralari ko'radi, ular o'rtasida milliy ma'naviyatimizga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan holatlarning oldini olish yuzasidan tushuntirish ishlarini olib boradi;

huquqbuzarlikka moyilligi bo'lgan xotin-qizlar bilan yakka tartibda ish olib borishda ichki ishlar organlari xodimlari va jamoatchilik tuzilmalari vakillari bilan doimiy ravishda hamkorlik qiladi;

jazoni ijro etish muassasalaridagi ozodlikdan mahrum etilgan xotin-qizlar tomonidan sodir etgan jinoyatlarni profilaktika inspektorlari bilan birgalikda tahlil qilib boradi va ularni xotin-qizlar qo'mitalari hamda fuqarolar yig'inlari kafilligi asosida afv etish bo'yicha takliflar kiritadi;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan, maxsus o'quv-tarbiya, ijtimoiy moslashish va reabilitatsiya qilish muassasalaridan qaytgan xotin-qizlarning ijtimoiy reabilitatsiyasi va moslashishini tashkil etishda ishtirok etadi, ularni turar joy va ish bilan ta'minlash, kasbga yo'naltirish masalalarida davlat organlari va boshqa tashkilotlarga takliflar kiritadi;

surunkali alkogolizm, giyohvandlik yoki zaharvandlikka chalingan xotin-qizlarni tibbiy ko'rikdan, shu jumladan tekin va anonim tarzda o'tkazish, ularni davolash, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda esa majburiy davolash choralari ko'rilishini ta'minlashga ko'maklashadi;

xotin-qizlar o'rtasida turli salbiy ijtimoiy harakatlar, ayniqsa, o'z joniga qasd qilish, fohishabozlik, voyaga yetmagan qizlarni erta turmushga berish kabi holatlarning sabablarini chuqur o'rganadi, natijalari bo'yicha fuqarolar yig'ini kengashi, mahalliy hokimliklar, huquqni muhofaza qilish organlari va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda aniq chora-tadbirlarni amalga oshiradi;

turli sabablarga ko'ra (vafot etish, ajralish, chet elga o'qish yoki ishlash maqsadida ketish, mavsumiy yoki boshqa ishlar yuzasidan respublikaning boshqa hududlariga uzoq muddatga ketish va h.k.) yolg'iz yashayotgan ayollar va bolalarning muammolarini o'rganadi, ularda oilaviy muhitni to'g'ri tashkil etish yuzasidan tavsiyalar beradi, vasiylik yoki homiylikka, xususan to'liq davlat ta'minotiga, farzandlikka, oila tarbiyasiga (patronat) olishni talab etadigan holatlar yuzasidan darhol vasiylik va homiylik organlariga murojaat qiladi;

g) oilalarning reproduktiv salomatligini yaxshilash va tibbiy madaniyatini oshirish sohasida: "Oila — jamiyatning asosiy bo'g'ini", "Oila jamiyat va davlat himoyasida" degan konstitutsiyaviy prinsiplarni aholining kundalik hayot tarziga singdirish, oilaviy munosabatlar insonlar o'rtasidagi eng muqaddas vosita ekanligini targ'ib qilishga qaratilgan chora-tadbirlar olib boradi;

ota-onalarning yosh avlodni tarbiyalash bo'yicha huquqiy, ma'naviy-axloqiy va fiziologik bilimlarini oshirish maqsadida fuqarolar yig'ini huzurida tashkil etilgan "Ota-onalar universitetlari" faoliyatiga ko'maklashadi;

tarbiyaga oid masalalar yuzasidan ta'lim muassasalari bilan hamkorlikni ta'minlashda "Oila — mahalla — ta'lim muassasasi" hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo'yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar majmuasi amalga oshirilishiga ko'maklashadi;

xotin-qizlar o'rtasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish va targ'ib etish, ularni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlariga jalb qilish yuzasidan chora-tadbirlar ko'radi;

poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlari tuzilmalarida o'smir qizlar va fertil yoshidagi ayollar uchun tashkil etiladigan "ayollar maslahatxonalarini" bilan doimiy hamkorlik qiladi;

d) oilaviy qadriyatlarni mustahkamlash, erta nikoh va ajrashishlarning oldini olish bo'yicha samarali choralar ko'rish sohasida:

FHDY organlari bilan nikohni qayd etish masalalari bo'yicha hamkorlik qiladi, oila qurish yoshiga yetgan yoshlar va ularning ota-onalari bilan oila va nikoh munosabatlariga mas'uliyat bilan yondashish yuzasidan tushuntirishlar olib boradi;

milliy, diniy urf-odatlar va marosimlarning ixcham va zamonaviy, keng aholi manfaatlarini hisobga olgan holda tashkil etilishida fuqarolar yig'ini kengashiga ko'maklashadi;

oila va nikoh munosabatlarining faqat qonuniy asoslarda yo'lga qo'yish bo'yicha tushuntirishlar olib boradi;

yarashtiruv komissiyalari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridagi boshqa tuzilmalar bilan birgalikda oilaviy nizolarni erta aniqlash va oldini olish choralari ko'radi;

FHDY organlari bilan ularning nikoh munosabatlariga oid aktlarni rasmiylashtirish, oila institutini mustahkamlash, oilaviy ajrashishlarning oldini olish bilan bog'liq bo'lgan faoliyati yuzasidan doimiy hamkorlik qiladi;

FHDY organlari va sudlar tomonidan nikohdan ajrashishga doir masalalar ko'rib chiqilishida oilalarni saqlab qolish yuzasidan choralar ko'radi;

xotin-qizlarning oila a'zolari, shu jumladan ota-onalar va farzandlar bilan munosabatlarni to'g'ri yo'lga qo'yish bo'yicha psixologik madaniyatini oshirish choralari ko'radi;

notinch va muammoli oilalarda xotin-qizlar bilan sog'lomlashtirish va nizoli holatlarni bartaraf etish bo'yicha amaliy ishlar olib boradi, oila a'zolari va qarindosh-urug'lar o'rtasidagi oilaviy munosabatlarni yaxshilashga qaratilgan tushuntirish ishlarini tashkil etadi;

erta nikoh va erta homiladorlik, yaqin qarindoshlar o'rtasidagi nikoh hamda kutilmagan homiladorlik holatlarining oldini olish, tug'ruqlar orasidagi intergenetik intervalni saqlash bo'yicha xotin-qizlar, ota-onalar o'rtasida tushuntirishlar beradi.

6. Mutaxassis o'z zimmasiga qonun hujjatlari bilan yuklangan boshqa vazifa va funksiyalarni ham bajaradi.

Mutaxassis zimmasiga mazkur Nizom va boshqa qonun hujjatlarida nazarda tutilmagan vazifa va funksiyalarni yuklash, shu jumladan uni o'z vazifalari va funksiyalari bilan bog'liq bo'lmagan yig'ilishlarga va boshqa tadbirlarga jalb etishga yo'l qo'yilmaydi.

3-bob. Mutaxassisning huquqlari va majburiyatlari

7. Mutaxassis o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida quyidagi huquqlardan foydalanadi: davlat organlari va tashkilotlaridan o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalar bilan bog'liq zarur hujjatlar, statistik va boshqa ma'lumotlar, tahliliy materiallar, xulosalar va boshqa axborotlarni, shu jumladan FHDY organlari va sudlardan o'zi faoliyat ko'rsatayotgan hududda doimiy istiqomat qilayotgan xotin-qizlar ishtirokida ko'rilayotgan nikohni va nikohdan ajrashishni qayd etish bilan bog'liq ishlar yuzasidan ma'lumotlar so'rab olish, qonunga asosan tarqatilishi taqiqlangan yoki cheklangan axborotlar bundan mustasno;

fuqarolar yig'ini kengashida ishtirok etish, o'z faoliyatini samarali tashkil etish uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlariga berilgan huquqlar va imkoniyatlardan foydalanish;

jamiyat va davlat hayotida faollik va tashabbuskorlik ko'rsatgan, o'zining samarali mehnati bilan oilaning shakllanishi va farovonligi mustahkamlanishiga, onalik va bolalik muhofazasiga munosib hissa qo'shgan xotin-qizlarni "Mo'tabar ayol" ko'krak nishoniga taqdim etish uchun nomzod etib ko'rsatish;

davlat organlari va tashkilotlari bilan munosabatlarda xotin-qizlar manfaatlarini ifoda etish;

davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan o'z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan faol hamkorlik aloqalarini o'rnatish;

davlat organlari va boshqa tashkilotlarga, shu jumladan xalq deputatlari tuman (shahar) kengashlariga o'z faoliyatiga doir masalalar yuzasidan takliflar kiritish, ularning ko'rib chiqilishida ishtirok etish;

qonun hujjatlariga muvofiq o'z malakasini oshirish.

8. Mutaxassis o'z faoliyatini amalga oshirish jarayonida quyidagilarga majbur:

o'z zimmasiga yuklatilgan vazifa va funksiyalarni to'liq va sifatli bajarish;

fuqarolar bilan munosabatlarda odob-axloq qoidalariga qat'iy rioya etish, vazmin bo'lish, zarur hollarda taktik usullardan foydalangan holda harakat qilish;

o'z faoliyatini amalga oshirish natijasida o'ziga ma'lum bo'lgan axborotlarning qat'iy sir saqlanishini ta'minlash.

9. Mutaxassis qonun hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ega bo'lishi va majburiyatlarni olishi mumkin.

4-bob. Mutaxassisning faoliyatini tashkil etish

10. Mutaxassis lavozimi oilalar soni 2000 gacha bo'lgan fuqarolar yig'inida 1 tadan, oilalar soni 2000 va undan ortiq bo'lgan fuqarolar yig'inlarida esa 2 tadan joriy etiladi.

11. Mutaxassis fuqarolar yig'ini binosida joylashadi, lavozimi bo'yicha fuqarolar yig'ini kengashining tarkibiga kiradi va fuqarolar yig'ini bilan yaqin hamkorlikda o'z faoliyatini amalga oshiradi. Bunda, mutaxassisga ish haqi lavozim maoshiga fuqarolar yig'ini maslahatchisi lavozimiga beriladigan qo'shimcha rag'batlantirishlar miqdori va shartlari (alohida sharoitlar uchun ustama, rag'batlantirish koeffitsenti, mukofot va moddiy yordam) saqlanadi.

12. Mutaxassis fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tavsiyasiga asosan tuman (shahar) xotin-qizlar qo'mitasi raisi tomonidan lavozimga tayinlanadi va lavozimidan ozod etiladi.

13. Mutaxassis lavozimiga, qoida tariqasida, oliy ma'lumotga ega bo'lgan, kamida besh yil tegishli fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi hududida doimiy yashayotgan, oilasi, turmush-tarzi, xulq-odobiga ko'ra ijobiy tavsiflanadigan xotin-qizlar tayinlanadi.

Sudlanganlik holati tugallanmagan yoki olib tashlanmagan shaxslar mutaxassis lavozimiga tayinlanishi mumkin emas.

5-bob. Mutaxassis faoliyatining samaradorligini baholash mezonlari

14. Mutaxassis o'z faoliyati samaradorligi yuzasidan tuman (shahar) xotin-qizlar qo'mitasi oldida hisobdor bo'ladi.

15. Mutaxassis faoliyatining samaradorligi har yili o'tgan yil natijalariga ko'ra tuman (shahar) xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi "Oila" ilmiy-amaliy tadqiqot markazining tuman (shahar) bo'limi, ichki ishlar va FHDY organlari, bandlikka ko'maklashish markazlari va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari ishtirokida baholanadi.

16. Mutaxassis faoliyatining samaradorligi quyidagi asosiy ko'rsatkichlar dinamikasini tahlil qilish orqali baholanadi:

ish bilan ta'minlanmagan mehnat yoshidagi xotin-qizlar soni;

tadbirkorlik, hunarmandchilik bilan shug'ullanishga jalb etilgan xotin-qizlar soni;

ajrashishlar soni;

ajrashishdan saqlab qolingani oilalar soni;

17 (16) yoshga to'lmasdan turmushga chiqqan, shundan farzandli bo'lgan qizlar soni;

xotin-qizlar tomonidan sodir etilgan jinoyatlar va huquqbuzarliklar, shuningdek o'z joniga qasd qilish holatlari soni.

17. Baholash jarayonida har bir ko'rsatkich o'tgan yilgi ko'rsatkichlar bilan solishtirgan holda, shu jumladan har bir ko'rsatkichning alohida turlari, xotin-qizlarning tegishli yosh kontingenti kesimida tahlil qilinadi.

18. Baholash natijalariga ko'ra mutaxassisga mehnat to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan rag'batlantirish va lavozimidan ozod etishgacha bo'lgan intizomiy jazo choralari qo'llanilishi mumkin.

6-bob. Yakuniy qoida

19. Mazkur Nizom talablari buzilishida aybdor bo'lgan shaxslar qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 14-martdagi 200-son qaroriga
2-ILOVA

O'zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o'zgartirishlar

1. Vazirlar Mahkamasining "Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2013-yil 7-oktabrdagi 274-son qarorining (O'zbekiston Respublikasi QT, 2013-y., 10-son, 71-modda) 2-bandi, shuningdek qarorga 12-ilova o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

2. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 17-iyuldagi 500-son qarori bilan tasdiqlangan Posyolkalar, qishloqlar va ovullarning, shuningdek shaharlar, posyolkalar, qishloqlar va ovullarning mahallalari fuqarolar yig'inlari xodimlari mehnatiga haq to'lashning Yagona tarif setkasi bo'yicha **razryadlaridan** "Fuqarolar yig'inining diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya masalalari bo'yicha maslahatchisi" pozitsiyasi chiqarib tashlansin.

(Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 16.03.2018-y., 09/18/200/0906-son)